O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O’ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

AHMEDOVA F.M., IBRAGIMOV M.B.

IJTIMOIY TIZIM VA JARAYONLAR SOTSIOLOGIYASI

DARSLIK

70311002 - Ijtimoiy tizim va jarayonlarning axborot va psixologik xavfsizligi mutaxassisligi uchun

«GRAND KONDOR PRINT»
TOSHKENT – 2024

UDK: 494.376:22.15:63
KBK: 81.652.22
A 668

AHMEDOVA F.M., IBRAGIMOV M.B.
“IJTIMOIY TIZIM VA JARAYONLAR SOTSIOLOGIYASI”. [DARSLIK]. — Toshkent.: “GRAND KONDOR PRINT”, 2024 yil., 308 b.

Darslik Oliy ta’lim Davlat standarti asosida fanning namunaviy o’quv dasturiga mos ravishda 70311002 - Ijtimoiy tizim va jarayonlrning axborot va psixologik xavfsizligi mutaxassisligi magistr talabalari uchun tayyorlangan. Darslik magistrlar, doktorantlar va professor-o'qituvchilar hamda “Ijtimoiy tizim va jarayonlar sotsiologiyasi” fanini mustaqil o’ganmoqchi bo’lgan o’quvchilar foydalanishlsri mumkin. Mazkur darslik “Ijtimoiy tizim va jarayonlar sotsiologiyasi” fanidan mavzularga oid asosiy savollar tayanch tushunchalar, Darslikda ijtimoiy jarayonlarga ta’luqli masalalar 15ta mavzuga bo‘lib talqin qilingan, har bir mavzuga tayanch tushunchalar, nazariy matn, mustaqil o‘zlashtirish uchun savollar, testlar berilgan. Darslik O’zMU, Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya kafedrasida tayyorlangan.

Mas'ul muharrir:

Bekmurodov M.B.– professor, sotsiologiya fanlari doktori

Taqrizchilar:

Zaitov E.X. – dotsent, sotsiologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Kadirova X.B.– dotsent, sotsiologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Mazkur darslik Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti o’quv-uslubiy Kengashining 2024 yil 28-matrdagi 6-sonli buyrug’iga asosan nashr etishga tavsiya etildi.

ISBN 978-9910-9290-5-2

© **AHMEDOVA F.M., IBRAGIMOV M.B. 2024**
© «**GRAND KONDOR PRINT**» 2024

Annotatsiya

Maskur darslik, hozirgi zamon ijtimoiy tizim va jarayonlar, ijtimoiy tizim buzilishining sababi va tizimlaming barqarorligini saqlash, jamiyatning ijtimoiy strukturasi va sotsial jarayonlar, jamiyat hayotidagi umumiylik fenomeni va uni tashkil qiluvchi elementlar, ijtimoiy tizimlar va ularning turlari, ijtimoiy formatsiyalar va sivilizatsiyalarning tizim sifatida namoyon bolishi, zamonaviy sotsiologiyada ijtimoiy jarayonlar tahlili haqida tizimli bilimlarni shakllantirishga qaratilgan. Darslikda ijtimoiy tizimning yaxlit qiyofasini ijtimoiy jarayonlar bilan bogliqlikda o‘rgatish, ijtimoiy o‘zgarishlar tendensiyalarini prognozlash ko‘nikmalarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar izchil bayon etilgan. Darslik talabalar, tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilar hamda ijtimoiy tizim va jarayonlar bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Аннотация

Данный учебник направлен на формирование знаний по таким вопросам как, современная социальная система и процессы, причина их разрушения социальной системы и поддержания устойчивости системы, социальная структура общества и социальные процессы, феномен общности в жизни общества и его составных элементах, социальные системы и их типы, социальные формации и цивилизации как системные проявления и анализ социальных процессов в современной социологии. В учебнике последовательно описаны занятия, направленные на обучение общему образу социальной системы в связи с социальными процессами, освоение навыков прогнозирования тенденций социальных изменений. Учебник предназначен для студентов, магистрантов, исследователей, преподавателей и широкого круга читателей, интересующихся социальными системами и процессами.

Annotation

This textbook is aimed at developing knowledge about the issues of the modern social system and processes, the reason for their destruction of the social system and maintaining the stability of the system, the social structure of society and social processes, the phenomenon of community in the life of society and its constituent elements, social systems and their types, social formations and civilizations as systemic manifestations and analysis of social processes in modern sociology. The textbook consistently describes classes aimed at teaching the general image of the social system in connection with social processes, mastering the skills of forecasting trends in social change. The textbook is intended for students, researchers, teachers and a wide range of readers interested in social systems and processes.

SO‘Z BOSHI

Zamonaviy jamiyatdagi o’zgarishlar sur’atlarining oshishi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning o’sib borayotgan roli ijtimoiy voqelikning jiddiy murakkablashishiga olib keladi. XX-asr oxiridagi va XXI asrdagi ijtimoiy-siyosiy voqealar sotsiologlar uchun kutilmagan bo’lib chiqdi, ularning ko’pchiligi haligacha qoniqarli tushuntirishlarni olmagan. Bularning barchasi ijtimoiy dinamika muammolarini o’rganishni zamonaviy sotsiologiya fanining eng dolzarb vazifalaridan biriga aylantiradi.

Ma’lumki murakkablikni tushunish asosida o‘zaro bog‘liqlik, tuzilma, tizim tushunchalari yotadi. Tizim bu ko‘plab o‘zaro bog‘liq elementlardan iborat yaxlitlikdir. Tizim elementlarining birortasi olib tashlansa, tizimda o‘zgarish sodir bo‘ladi. Tizimning hatti-harakati uning strukturasi bilan belgilanadi. Tizim strukturasining o‘zgarishi tizimning o‘zgarishiga olib keladi. Tizim o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, u elementlarda mavjud emas.

Tizimning xususiyatlari yaxlitlikning xususiyatlari hisoblanadi, ammo tizim elementlarining emas. Tizim dinamik murakkablikka ega bo‘lib, tizimdagi elementlarning turlicha holati va o‘zaro bog‘lanishlari bunga sababdir. Tizim elementlari orasidagi bog‘lanishlari orqali barqarorlikni saqlaydi. Tizim tashqi muhit bilan teskari aloqada bo‘ladi. Har bir tizimda maqsad mavjud bo‘ladi. Bu maqsad oddiygina o‘zini saqlash, barqarorligini saqlash ko‘rinishida yoki funksional ierarxik yuqoriroq tizimga xizmat qilishdan iborat bo‘lishi mumkin. Jumladan, birinchi rahbarlar faqat kabinetda o‘tirmasdan, joylarga borib, aholini bezovta qilaètgan eng dolzarb muammolarning amaliy yechimi bilan shug‘ullanmoqda. Shu ma’noda “2017 yil xalq bilan yaqindan muloqot qilish, uning dardu tashvishlari, hayotiy muammolarini samarali hal etish bo‘yicha yangi tizim yaratilgan yil bo‘ldi”[1]. Ayniqsa, bu tizimning asosi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasiga ko‘plab odamlar yillar davomida hal

[1] Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2018. –B.5.

etilmagan muammolari ijobiy yechilgani O‘zbekistonda xalq hokimiyati nomiga emas, amalga joriy etilayotganini ko‘rsatmoqda.

Respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy bog‘lanishlar, aloqalar chambarchas bog‘liq, ularni anglash, bilish, faoliyat olib borish uchun tizimli tafakkur, yondashuvi zarur. Ayniqsa, hozirgi globallashuv davrida, yer yuzida sodir bo‘laètgan ekologik jaraènlar (iqlim isishi, chuchuk suvni kamayishi, demografik masalalar, ijtimoiy-iqtisodiy kabi muammolar tahlili tizimli tafakkur, tizimli yondashuv asosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Tizimli yondashuv ko‘zda tutilgan vazifalarning muvafaqqiyatli amalga oshirilishi jamiyatimizning murakkab tizim sifatida rivojlanishi, yangi murakkab tizimga o‘tishiga imkon beradi[2].

Ushbu darslikning maqsadi sotsiologiya, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy fakultetlari yuqori kurs magistrlariga ijtimoiy jarayonlar tizimi va jarayonlari, modellashtirish usullarini o’zlashtirishga yordam berishdir. Ushbu darslikda asosiy e’tibor ijtimoiy tizim buzilishining sababi va tizimlaming barqarorligini saqlash, jamiyatning ijtimoiy strukturasi va sotsial jarayonlar, jamiyat hayotidagi umumiylik fenomeni va uni tashkil qiluvchi elementlar, ijtimoiy tizimlar va ularning turlari, ijtimoiy formatsiyalar va sivilizatsiyalarning tizim sifatida namoyon bolishi, zamonaviy sotsiologiyada ijtimoiy jarayonlar tahlili haqida tizimli bilimlarni shakllantirishga qaratilgan. Har bir mavzuning oxirida topshiriq va mashqlar mavjud bo’lib, ulardan ba’zilari shunchaki nazorat savollari, boshqalari seminarlarda muhokama qilish uchun mavzu bo’lib xizmat qilishi mumkin. Ba’zi topshiriqlar test va “keis stadi” usulidan foyidalanilgan.

Magistrantlar uchun “Ijtimoiy tizim va jarayonlar sotsiologiyasi” o’quv kursini o’zlashtirish mezoni quyidagi umumiy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish hisoblanadi:

- tanqidiy idrok etish, umumlashtirish, kasbiy ma’lumotlarni tahlil qilish, maqsadni belgilash va unga erishish yo’llarini tanlash qobiliyati;

[2] G‘affarova G. Tizimli yondashuv: falsafiy tahlil. Volume 3 | TSTU Conference 1 | 2022 .Prospects for Training International DOI: 10.24412/2181-1385-2022-1-96-101 Specialists in the Field of Transport

- ijtimoiy ahamiyatga ega muammolar va jarayonlarni xolislik va ilmiy xolislik bilan tahlil qilish qobiliyati;
- sotsiologik nazariya asoslari va sotsiologik tadqiqot usullari bo'yicha asosiy va kasbiy profillangan bilim va ko'nikmalarni kasbiy faoliyatda qo'llash qobiliyati. Fanni o'zlashtirish natijasida magistrantlar: ijtimoiy tizim va ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasining nazariy-metodologik asoslari, ijtimoiy tizim va ijtimoiy jarayonlar tushunchasining mazmun-mohiyati, ijtimoiy tizim prinsiplari, ijtimoiy jarayonlar shakli haqida tasavvurga va bilimga ega bo'lishi, ijtimoiy tizim va ijtimoiy jarayonlar haqida ilmiy bilimlaming shakllanishi, ijtimoiy tizim va ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasini o'rganish orqali jamiyatda sodir bo'ladigan ijtimoiy struktura va jarayonlar haqida tizimli tasawurga ega bo'lishi, mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish va ulami amaliyotga tadbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi, nazariy bilim, amaliy ko'nikmalar, ijtimoiy tizim va ijtimoiy jarayonlar haqida fikr yuritish, ijtimoiy amaliyotga ijodiy yondashish, jamiyatning ijtimoiy jarayonlari mexanizmlarini tahlil qilislm malakasiga ega bo'lishi ro'zda tutilgan. Mazkur darslik "Ijtimoiy tizim va jarayonlar sotsiologiyasi" fanidan mavzularga oid asosiy savollar, tayanch tushunchalar, ijtimoiy jarayonlarga ta'luqli masalalar 15ta mavzuga bo'lib talqin qilingan, har bir mavzuga tayanch tushunchalar, nazariy matn, mustaqil o'zlashtirish uchun savollar, testlar berilgan.